

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№ 4
maxsus son

2025
IYUL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

**BAKALAVR
TALABALARINIG
MAQOLALARI
TO'PLAMI**

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
58 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellash
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Nostandart bandlikning asosiy shakllari: ijtimoiy inklyuziya va iqtisodiy diversifikatsiya vositasi sifatida	10
Zuxra Abdikarimova, Saida Eshchanova	
“Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O‘zbekiston modeli”	16
Tojialiyev Sherdorbek Elmurod o‘g‘li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li	
Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasini yaxshilash va hududiy raqobatbardoshlikni ta’minlashning yarim zamonaviy yo‘nalishlari	20
Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi	
Sekinlashayotgan iqtisodiyot fonida Yaponiya va Xitoy o‘rtasidagi sanoat raqobati: sifat va nusxaning to‘qnashuvi	24
Mamatov Sardor Ilyasovich, Shoydulova Maftuna Zafar qizi	
O‘zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish (Navoiy viloyati misolida)	31
Poyonov Otabek Abdiqaxxor o‘g‘li, Almardonov Muxamadi Ibragimovich	
Yashil rivojlanish va raqamli islohotlar integratsiyasi: O‘zbekiston misolida tahlil	35
Baymuradova Zilola Alisherovna, Izbosarov Boburjon Baxriddinovich	
Industrial waste and global climate: pathways to a green economy transition	42
Ravshanbekova Madina Davlatboy qizi, Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi	
Sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalarining iqtisodiyotga ta’siri va ular orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish	47
Allanazarov Ravshan Shavkat o‘g‘li, Samadqulov Muhammadjon	
Raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlarda qo‘llanilishi va sanoat korxonalarini raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish	52
Allanazarov Ravshan Shavkat o‘g‘li, Samadqulov Muhammadjon	



RAQAMLI IQTISODIYOTNING TURLI TARMOQLARDA QO'LLANILISHI VA SANOAT KORXONALARINI RAQAMLASHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Allanazarov Ravshan Shavkat o'g'li

TKTI Yangiyer filiali 2 – bosqich talabasi

E-mail: ravshan.allanazarov@mail.ru

Samadqulov Muhammadjon

Iqtisodiyot va ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali,

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahri, O'zbekiston.

E-mail: ravshanjonallanazarov@gmail.com

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyot so'nggi o'n yillikda global iqtisodiy transformatsiyaning asosiy omillaridan biriga aylandi. Ushbu maqola O'zbekiston iqtisodiyotidagi raqamli texnologiyalarning turli tarmoqlarda, xususan, sanoat korxonalarini raqamlashtirishda qo'llanilishi va innovatsion texnologiyalarning ta'sirini o'rganadi. Tadqiqot 2012-2024-yillarni qamrab oladi va raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish unumdorligi va raqobatbardoshlikka ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilib, raqamli texnologiyalarni joriy etishning sanoat korxonalaridagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri o'lchanadi. O'zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi, transport, moliya va ta'lim sohalaridagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Natijalar raqamlashtirishning mahsulдорlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini, lekin infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi kabi to'siqlarni ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlar va korelatsiya tahlili yordamida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy o'sishga ta'siri aniqlanadi. Maqola davlat siyosati, xususiyl sektor va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish bo'yicha takliflar beradi. Tadqiqot O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarbligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, sanoat raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, ekonometrik tahlil, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract: The digital economy has become one of the main factors of global economic transformation in the last decade. This article studies the application of digital technologies in the economy of Uzbekistan in various sectors, in particular, in the digitalization of industrial enterprises, and the impact of innovative technologies. The study covers the period 2012-2024 and analyzes the impact of digitalization on economic efficiency, production productivity, and competitiveness. The article uses econometric analysis methods to measure the impact of the introduction of digital technologies on economic indicators in industrial enterprises. The application of the digital economy in the agricultural, transport, finance, and education sectors is analyzed on the example of Uzbekistan. The results show that digitalization is important in increasing productivity, but there are obstacles, such as a lack of infrastructure and qualified personnel. Using statistical data and correlation analysis, the impact of the introduction of digital technologies on economic growth is determined. The article provides proposals for accelerating digitalization processes by strengthening cooperation between public policy, the private sector and research institutions. The study emphasizes the relevance of developing the digital economy within the framework of Uzbekistan's "Digital Uzbekistan - 2030" strategy.

Keywords: Digital economy, industrial digitalization, innovative technologies, econometric analysis, economy of Uzbekistan.



Аннотация: Цифровая экономика стала одним из основных факторов глобальной экономической трансформации за последнее десятилетие. В данной статье изучается применение цифровых технологий в экономике Узбекистана в различных секторах, в частности, в цифровизации промышленных предприятий, и влияние инновационных технологий. Исследование охватывает период 2012-2024 годов и анализирует влияние цифровизации на экономическую эффективность, производительность производства и конкурентоспособность. В статье используются методы эконометрического анализа для измерения влияния внедрения цифровых технологий на экономические показатели промышленных предприятий. На примере Узбекистана анализируется применение цифровой экономики в сельскохозяйственном, транспортном, финансовом и образовательном секторах. Результаты показывают, что цифровизация важна для повышения производительности, но существуют препятствия, такие как нехватка инфраструктуры и квалифицированных кадров. С использованием статистических данных и корреляционного анализа определяется влияние внедрения цифровых технологий на экономический рост. В статье представлены предложения по ускорению процессов цифровизации путем укрепления сотрудничества между государственной политикой, частным сектором и научно-исследовательскими институтами. В исследовании подчеркивается актуальность развития цифровой экономики в рамках стратегии Узбекистана «Цифровой Узбекистан – 2030».

Ключевые слова: Цифровая экономика, цифровизация промышленности, инновационные технологии, эконометрический анализ, экономика Узбекистана.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot zamonaviy dunyoda iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tan olinmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim qadamlar qo'yildi, bu esa mamlakatning iqtisodiy modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida davlat raqamlashtirishni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga integratsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ushbu strategiya nafaqat davlat boshqaruvini avtomatlashtirish, balki sanoat, qishloq xo'jaligi, moliya va ta'lim kabi sohalarda samaradorlikni oshirishni maqsad qiladi. 2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 32 milliondan oshdi, bu esa aholining 90% dan ortig'ini tashkil etadi. Bu raqam 2012-yildagi 15% ga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Sanoat korxonalarida IoT (Internet of Things), sun'iy intellekt va blokcheyn kabi texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini berdi. Masalan, Toshkentdagi yirik avtomobil zavodlarida avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari joriy etildi, bu esa mahsulдорlikni 20% ga oshirdi. Raqamli iqtisodiyotning dolzarbligi nafaqat iqtisodiy samaradorlik bilan bog'liq, balki global raqobat sharoitida mamlakatning o'rnini mustahkamlashda ham namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun raqamlashtirish nafaqat ichki bozorlarni rivojlantirish, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Biroq, infratuzilma muammolari, malakali kadrlar yetishmasligi va kiberxavfsizlik masalalari raqamlashtirish jarayonida jiddiy to'siqlar sifatida qolmoqda. Ushbu tadqiqot O'zbekiston misolida raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlardagi ta'sirini va sanoat korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy natijalarini o'rganadi. Maqsad – raqamlashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash va davlat siyosati uchun amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot va sanoat korxonalarini raqamlashtirish bo'yicha xorijiy adabiyotlarda keng ko'lamli tadqiqotlar mavjud. Schwab (2016) o'zining "To'rtinchi sanoat inqilobi" asarida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga transformatsion ta'sirini ta'kidlab, IoT, AI va katta ma'lumotlar tahlilining ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishdagi rolini yoritadi. Uning fikricha, raqamlashtirish nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki yangi biznes modellarini yaratish imkonini beradi. McKinsey Global Institute (2018) hisobotida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samarasi global miqyosda o'rganilib, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamlashtirishning YaIMga 1-2% qo'shimcha o'sish keltirishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Brynjolfsson va McAfee (2014) "Ikkinchi mashina asri" asarida raqamli texnologiyalarning mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilib, avtomatlashtirishning ish o'rinlari soniga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun malaka oshirish dasturlarining muhimligini ta'kidlaydi. OECD (2020) hisobotida raqamli iqtisodiyotning kiberxavfsizlik va ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq muammolari yoritiladi. Bu masalalar O'zbekistonning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham aks etgan.

Darija Salehar (2017) "Blokcheyn texnologiyasining biznes modellaridagi o'rni" maqolasida blokcheynning tranzaksiya xarajatlarni kamaytirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari O'zbekistonning moliya va

logistika sohalarida blokcheynni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi. World Bank (2016) "Raqamli dividendlar" hisobotida raqamli infratuzilmaning rivojlanishi iqtisodiy o'sishga ta'sirini tahlil qilib, yuqori tezlikdagi internetning YalMni 0.4-1.4% oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu O'zbekistonning telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishdagi muammolarini hal qilishda muhim yo'l-yo'riq bo'la oladi.

Porter va Heppelmann (2014) "Harvard Business Review" jurnalidagi maqolasida IoT texnologiyalarning sanoat korxonalarida qo'llanilishi va ularning qiymat zanjirini o'zgartirishi haqida yozadi. Ularning fikricha, aqlli qurilmalar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda monitoring qilish imkonini beradi, bu esa xarajatlarni 15-20% kamaytiradi. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston sanoat korxonalarida raqamlashtirishning potensialini ko'rsatadi, lekin mahalliy kontekstda infratuzilma va kadrlar tayyorligi muammolari cheklovchi omil sifatida qolmoqda.


Tadqiqot Metodologiyasi Tadqiqot raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiyotidagi turli tarmoqlarda qo'llanilishi va sanoat korxonalarini raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda ekonometrik tahlil usullari qo'llaniladi, bu orqali raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy ko'rsatkichlarga (YalM, ishlab chiqarish unumdorligi, eksport hajmi) ta'siri o'lchanadi. Ma'lumotlar 2012-2024-yillarni qamrab oladi va O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, OECD) ma'lumotlariga asoslanadi.

Ekonometrik model sifatida panel ma'lumotlar regressiyasi qo'llaniladi, bu yillik va tarmoqlar bo'yicha o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini beradi. Asosiy o'zgaruvchilar quyidagilardan iborat: 1) raqamli texnologiyalarga investitsiyalar (million AQSh dollarida); 2) internetga ulanish darajasi (%); 3) sanoat korxonalarida avtomatlashtirish darajasi (%); 4) ishlab chiqarish unumdorligi (soatiga mahsulot hajmi); 5) eksport hajmi (million AQSh dollarida). Ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelatsiya Pearson koeffitsiyenti yordamida hisoblanadi.

Ma'lumotlarni yig'ishda ikkilamchi manbalar (statistik hisobotlar, ilmiy maqolalar) va birlamchi manbalar (sanoat korxonalaridan so'rovnomalar) ishlatiladi. So'rovnomalar Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridagi 50 ta yirik sanoat korxonasidan olingan ma'lumotlarga asoslanadi. Tahlilda Stata va R dasturlari yordamida regressiya modellar quriladi va o'zgaruvchilarning statistik ahamiyatligi 95% ishonch darajasida sinovdan o'tkaziladi. Tadqiqotda raqamlashtirishning turli tarmoqlarga (sanoat, qishloq xo'jaligi, moliya) ta'sirini solishtirish uchun SWOT tahlili ham qo'llaniladi. Bu usul raqamlashtirishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi.

Дунё ишлаб чиқариш саноати етакчилари

Глобал ишлаб чиқариш юқори бўлган
10 мамлакат



Манба: БМТ статистикаси



burchakostida

1-jadval. Dunyoda ishlab chiqarish sanoati yeakchilar¹

1 Manba: БМТ статистикаси 2019



BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'biri bilan aytganda, "raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog'liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruhlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi". Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot miqyosining kengayib borishida xalqaro hamkorlikni imkon qadar kuchaytirish zarur. Shu o'rinda mamnuniyat bilan qayd etish joizki, O'zbekistonda axborot xavfsizligi sohasida olib borilayotgan ta'sirchan chora-tadbirlar natijasida 2019-yilda Kiberxavfsizlik global indeksida 41 pog'onaga ko'tarilib, 52 o'rinni egalladi. Rasmdan ko'rinib turibdiki dunyoning rivojlangan mamlakatlari yuqori pog'onalarni egallab turibdi. Buning asli sababchisin innovatsion texnologiyalar natijasi desak mubolag'a bulmaydi. O'zbekiston hududida ham bir qancha investitsion loyihalar asosida korxonalar faoliyati ancha yuqori cho'qqilarga chiqqanini amalda ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi faoliyatini olshimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 12- fevraldagi PQ-2126-son qaroriga muvofiq, GSM standartidagi mobil aloqa milliy operatori tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda, butun O'zbekiston bo'ylab GSM standartidagi mobil aloqa tarmog'ini kengaytirish amalga oshirildi.²

2-jadval. Ba'zi hukumatlar tomonidan tadqiqot va innovatsiyalarga ajratilgan investitsiyalar (YalMga nisbatan foizda)³

Mamlakat	YalM %
Germaniya	2,7 %
AQSH	2,8 %
Yaponiya	3,5 %
Belorussiya	0,74 %
Rossiya	1,04 %

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy sharoitda turli mamlakatlar hukumatlari ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarga katta miqdorda mablag' sarflamoqda. Ushbu xarajatlarni (YalMga nisbatan%) 1-jadvaldan ko'rish mumkin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlar YalMning taxminan 3 foizini innovatsiyalarga sarflaydilar, o'tish iqtisodiyoti bo'lgan mamlakatlar esa ancha kam mablag' sarflaydilar. Biroq, global iqtisodiy inqiroz sharoitida korxonalar va ilmiy guruhlariga ajratilgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish vazifasi birinchi o'rinda turadi. Shu munosabat bilan biz iqtisodiy samaradorlik tushunchasiga duch kelamiz. Ushbu maqsadlar uchun har yili Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Yevropa innovatsion ko'rsatkichlari (YIK) nashr etiladi. Shuningdek, 2007 yilda Yevropa Ittifoqining bir qator mamlakatlari uchun ish muhitini tahlil qilish usuli asosida texnik samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Faoliyat muhitini tahlil qilish usuli asosida Belorusiya iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va ushbu ko'rsatkichga innovatsiyalarning ta'siri tahlili o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda muallif 43 ta mamlakatdan, 3 ta kirish parametrlaridan (YalMning intensivligi, million kishiga to'g'ri keladigan olimlarning soni, ta'lim xarajatlari YalMga nisbatan%), shuningdek, 3 ta o'zgaruvchidan foydalangan (milliy patentga talabnomalar soni, yuqori texnologiyalar) eksport sanoat eksportining% sifatida, AKT eksportining umumiy eksport hajmida%). Natija shuni ko'rsatadiki, bu holatda foyda moddiy ishlab chiqarish (sanoat iqtisodiyoti) emas, balki moliya (kapital) emas, balki yangilik sohalari va olimlarning intellekti tomonidan yaratiladi. Tadqiqotchilar E. Toffler, F. Fukuyama, D. Bell, J. Naysbitt va boshqalar zamonaviy dunyodagi aksariyat rivojlangan mamlakatlar uchun aynan innovatsion iqtisodiyot jahon iqtisodiy ustunligini ta'minlaydi, deb hisoblashadi. Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Shvetsiya, Finlyandiya, Singapur, Isroil va boshqa mamlakatlar innovatsion iqtisodiyotning rivojlangan vechur biznesi bo'lgan innovatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlar qatoriga kiradi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ hisoblanadi. Bundan tashqari Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o'ziga xos mas'uliyat va vazifalarga ega. Bu haqida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida ham alohida ta'kidlab o'tildi.

² Uzbektelekom AK 2020 yil hisoboti

³ <http://statistika.ru> 2017



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo'nalishlarini sanab o'tish maqsadga muvofiq:

Raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog'liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog'iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to'liq qoplashni bosqichma-bosqich ta'minlash;

O'zbekiston hududida amalga oshirish; Raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu sohada "Raqamli ishonch" jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo'llabquvvatlash;

Raqamli iqtisodiyot sohasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish,

Raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o'zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib boorish.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo'llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim. Kelajakda raqamli iqtisodiyot O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida markaziy o'rin tutadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat ichki bozorlarni rivojlantiradi, balki xalqaro bozorlarda mamlakatning imidjini mustahkamlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhim vositadir, ammo muvaffaqiyat davlat, xususiy sektor va ilmiy doiralar o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). *How Smart, Connected Products Are Transforming Competition*. Harvard Business Review.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni. (2020). <https://lex.uz/docs/-5030957>
3. Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *O'zbekiston iqtisodiyotidagi raqamlashtirish ko'rsatkichlari*. stat.uz
4. Akayev, A. A., & Cenjabayev, A. T. (2024). *Axborot xavfsizligi va raqamli iqtisodiyot*. IMRAS Journal.
5. Boston Consulting Group. (2010). *The Impact of Digitalization on G20 Economies*. BCG.
6. Piriyeva, S., & Yaxshiboyeva, L. (2024). *Raqamli iqtisodiyotda to'lov tizimlari*. ResearchGate.
7. Xoshimov, E. (2019). *To'rtinchi sanoat inqilobida innovatsion boshqaruv*. infoCOM.UZ.
8. Mirziyoev, Sh. M. (2020). *Oliy Majlisga murojaatnoma*. Tashkent.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 12 fevraldagi PQ-2126-son
10. Maxkamova M.A. Развитие инновационного предпринимательства на селе. Достижение науки и техники APK. №7 2002, Moskva . S.37-40. 3.Maxkamova M.A. Теория инновационного менеджмента. Монография. Т.: «Наука и технология» », 2020. <https://stat.uz/uz/2-uncategorised/5221-o-zbekiston-aholisi>
11. "Uztelekom"AT manbai
12. Statistika.ru

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

4-Maxsus son.

Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100